QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI
TO‘RTKO‘L TUMANI HOKIMINING
QARORI

QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASÍ
TÓRTKÚL RAYONÍ HÁKIMINIŃ
SHESHIMI

231200. Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumani, To‘rtko‘l ko‘chasi 53-uy.
Tel: 532-20-75, 532-20-47, 532-20-37. Faks: 532-30-40

2024 - yil 6 - fevral 21-13-190-Q/24 To‘rtko‘l tuman hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekistan Respublikasining 2013-yil 10-aprel kungi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi 348-sonli Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari) odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli

yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari – bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – ikki yilda bir marta;

d) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – bir yilda bir marta;

e) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi – shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

4. Mazkur qarorning 3-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart-30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentyabr-31-oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbari transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va

ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yoqilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalari DYHXX organlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan miqdorda yig‘im undiriladi.

Birinchi (oldingi) texnik ko‘rikda nosoz deb topilgan transport vositalari takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganlik uchun yig‘im undiriladi.

Texnik ko‘rik o‘tkazilganligi uchun yig‘im summasi tegishli mahalliy byudjetga o‘tkaziladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi

o‘rinbosari M.Bekchanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **R.Shamuratov**

To‘rtko‘l tuman hokimining
2024-yil 6-fevraldagi
21-13-190-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining

T A R K I B I

1	N.Allamov	-	tuman Ichki ishlar bo‘limining Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, komissiya raisi

A’ZOLARI:

2	R.Kamalov	-	tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
3	M.Sadullayev	-	tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
4	S.Reimberdiyev	-	tuman Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i
5	U.Matnazarov	-	tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi direktori
6	A.Yusupov	-	tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

KOMISSIYA KOTIBI:

7	A.Saparbayev	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori

To‘rtko‘l tuman hokimining
2024-yil 6-fevraldagi
21-13-190-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumandagi barcha tashkilot, korxona, muassasalarning davlat tomonidan majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

Tashkilot, korxona, xo‘jaliklar, muassasalar nomlari	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish vaqti	Avtotransport vositalarining soni	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy
To‘rtko‘l tumani hokimligi	01.01.2024-yildan 31.12.2024- yilgacha	8	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Xalq qabulxonasi	01.01.2024- yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	2	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l pedagogika kolleji	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Irrigatsiya bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari

O‘zmilliybank To‘rtko‘l tumani filiali	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
Xalq banki To‘rtko‘l tumani filiali	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
Mikrokreditbank To‘rtko‘l tumani bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
Agrobank To‘rtko‘l tumani filiali	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tuman tibbiyot birlashmasi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	8	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani SEO va JS bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	5	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
Yoshlar ishlari agentligi To‘rtko‘l tumani bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Chorvanasl bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Veterinariya va chorachilikni rivojlantirish bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari

To‘rtko‘l tumani Melioratsiya bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
O‘simliklar karatini va himoyasi agentligi tuman bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi	01.01.2024-yildan 31.12.2024 yilgacha	5	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani "Toza hudud" MCHJ	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	5	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani aloqa bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
"Qoraqalpoqgaz" filiali To‘rtko‘l tumanlararo gaz ta’minoti uchastkasi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	3	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	6	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari
To‘rtko‘l tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	01.01.2024-yildan 31.12.2024-yilgacha	1	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari

Tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari	birinchi marta – 01.03.2024-yildan - 30.06.2024-yilgacha; ikkinchi marta – 01.09.2024-yildan – 31.10.2024-yilgacha	7421	DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanadigan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari

Eslatma: *Fuqarolarning shaxsiy avtomototransport vositalari shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari shartnoma tuzilgan yuridik shaxsning manzilida har kuni soat 09:00 dan 18:00 gacha texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.*